

**O'ZBEKISTON VA GERMANIYANING SAVDO ALOQALARI****Hoshimova Sitara Doniyorovna****Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi****Zakirova Sayyora Alimovna****Ilmiy rahbar: Iqtisodiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsenti  
sitoradoniyorovna@gmail.com +99894-820-07-54  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10088111>**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizdagi savdo-sotiqni yanada takomillashtirish, erkin bozor prinsiplarini o'rnatish, ularni rivojiga keng yo'l ochib berish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisod bo'yicha tajribaga boy bo'lgan davlatlardan biri Germaniya Federativ Respublikasi bilan o'rnatilgan eksport va import aloqalari.

**Kalit so'zlar:** JST, BMT, kelishuvlar, savdo operatsiyasi, menejment turlari

Qayd etish joizki, mamalakatning rivoj topishini savdo-sotiqning ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Barchamizga ma'lumki, prezidentimiz davlatimizning yorqin kelajagi uchun uni har tomonlama rijov toptirish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sa'y harakatlar olib bormoqda. Ma'lumki bozor iqtisodiyoti davlatning martabasiga, kirim chiqimiga hamda mamalakatlararo eksport va importni tubdan rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda tayanch demakdir. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Germaniya, Yaponiya, Xitoy hamda bir qator davlatlar tamoman qarzdor davlatga aylanib, tanazzulga uchrashgan. Ammo, ichki bozorini rivojlantirish hamda erkin bozor haq-huquqlarni himoya qilish va bir qancha islohotlarni yo'lga qo'yish orqali Germaniya bu vaziyatdan birinchilardan bo'lib chiqib keta olgan. Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi istiqbolli hamda ishonchli hamkori hisoblanadi. Ikki davlatning bog'lab turguvchi omillardan biri, savdo-sotiq hisoblanadi. Savdo ikki turga bo'linadi. Birinchisi, xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar operatsiyasi bo'lsa, ikkinchisi, tayyor mahsulotlar operatsiyasi. Savdo operatsiyalari quyidagi boshqaruv shakllardan iborat.

1. Mustaqil savdo korxonalari.
2. Kooperativ tashkilotlarning oldi-sotdi birlashmalari.
3. Savdo agentliklari
4. Firmalarning savdo agentliklari. [1]

O'zbekiston Germaniyaga yarim tayyor mahsulotlarni eksport qilsa, import uchun ushbu davlatdan tayyor mahsulotlarni xarid qiladi. 2023-yil yanvar oyi statistikasiga ko'ra Germaniya O'zbekiston uchun oziq-ovqat va boshqa turdagi eksport salohiyati borasida top birinchilikda<sup>[2]</sup>. Bu turdagi hamkorlik davlatlar o'rtasida savdo-sotiq aloqalarini doimiy mustahkamlaydi. Bu yo'lda O'zbekiston yarim tayyor bo'lgan mahsulotni tan narxini past narxda sotsa, bu import qilayotgan davlatga qo'l keladi biroq, eksport qilayotgan davlat yutqazadi. Shunga qaramay, O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 111,8 % ga o'sgan.<sup>[3]</sup>

Mahsulotni yarim tayyor holatga keltirish uchun tan narxidan ko'proq sarmoya qilinadi. Qolaversa, ularni boshqa davlatga import qilish uchun, talab qilingan bojlarni to'lashda ham bir qancha to'lov turlari mavjud. O'zbekiston bir turdagi mahsulotni deylik, Xitoyga eksport qilish uchun avval Qozog'iston davlatidan o'tishi kerak. Har bir davlatning o'z bojlari mavjud. O'zbekistonga import qilinayotgan mahsulotlar turiga qarab, narx-navo jihatdan qiyinchiliklar tug'dirishi yaqqol ko'rinib turibdi. Sababi mahsulotni tayyor holatda sotish uchun investitsiya

kiritib ko'proq daromad qilish yo'llari talaygina bo'lsada, bu islohotlarni samarali tarzda amalga oshirish uchun yangi innovativ g'oyalar, sanoatga zamonaviy asbob-uskunalar hamda malakali kadrlar yetishmaganligi to'g'onoq bo'lmoqda. O'zbekistonda nafaqat Germaniyadan, qolaversa, boshqa rivojlangan davlatlardan ham tayyor mahsulotlarni import qilish keng miqiyosda rivojlangan. Iqtisodiy-siyosiy rivojlanish qator muammolarni bartaraf etish maqsadida prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M katta urinishlar natijasida Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik uchun O'zbekiston nomzodini qo'ydilar. AQSHda bo'lib o'tgan BMTning 78-assambleyasida "O'zbekiston-2030" nomli taraqqiyot strategiyaga assoslangan nutqlarida, "Asosiy maqsadimiz mamlakatlarimiz va xalqlarimizning bugungi kuni va istiqboli uchun mas'uliyatni har tomonlama chuqur anglash, ochiq va konstruktiv hamkorlikka tayyor barcha tomonlarni global muloqotga jalb qilishdan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusi bilan kelgusi yil Kelajak sammiti o'tkazilishi xalqaro va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishga, Tashkilotimizning ta'siri va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb ishonaman" deb ta'kidlab o'tdilar<sup>[4]</sup>. Aytish zarurki, mamlakatni savdo sohasini yanayam rivojlantirish uchun menejment turlariga e'tibor qaratish bilan ulkan yutuqlarga erishish mumkin. Misol uchun, demokratik, byurokratik, strategic va h.k. O'zbekistonda savdo salohiyatini iqtisodiy-siyosatni yaxshilash borasida boshqaruv turlari sanoat korxonalarida savdo-sotiq bo'yicha boshqaruv shakllarni tuzib, ichki va tashqi bozor savdosi uchun alohida markazlar tashkillashtirishi kabi islohotlar olib borilsa, ma'lum bir natijalarga erishish shubhasizdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston kelgusida barcha turdagi bizneslar uchun erkin yo'l ochib berishni maqsad qilgan. Jumladan yirik, kichik korxonalarga, xususiy va yakka tadbirkorlikga. Bunday katta urinishlar o'z natijasini bera boshlayabdi va o'ylaymizki, yaqin kelajakda yurtimizda har tomonlama rivojlanish keskin tus oladi. Ta'kidlash lozim-ki, kelgusida davlatimiz Yevropa va boshqa davlatlarga yarim tayyor emas balki tayyor mahsulotlarni eksport qilib o'zaro tenglikni o'rnatish maqsadida desak mubolag'a bo'lmaydi.

### References:

1. Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiy boshqaruv shakllari [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
2. O'zbekiston va Germaniya iqtisodiyoti <https://www.gazeta.uz/oz/2023/02/21/tashqi-savdo/>
3. Iqtisodiy statistika bo'yicha rasmiy manba [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
4. O'zbekiston prezidenti Mirziyoyev SH.M AQSH dagi BMTning 78-assambleyasida "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasi haqidagi nutqlari. [www.president.uz](http://www.president.uz)